



O'ZBEK XALQI ETNIK TURMUSH TARZIDA ANTRAPOLOGIK QARASHLAR

Tojiboyeva Dilovar

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti Folklor va etnografiya mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

E-mail: dilovartojiboyeva@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqi etnik turmush tarzida antropologik qarashlar hamda xalqlarning kelib chiqishi va shakllanishi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** tarixiy manba, umumiy tavsif, manzilgoxlar, qadimgi shaharlar, shahar xarobalari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, o'zbeklarining etnogenezi, etnik tarixi.*

Kirish

O'rta Osiyo xalqlarining, ayniqsa o'zbeklarining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish, umumiy etnografiya (etnologiya) fanining eng muhim va murakkab ajralmas tarkibi hisoblanadi. Bu muammoni o'zbek eli, balki hududdagi qo'shni etnoslar bilan bog'liq holda o'rganish zarur. Chunki O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va shakllanishi ibtidoiy davrlardan umumiy mushtaraklikka ega.

Dastlabki etnografik ma'lumotlar, qadimgi ajdodlarimiz turmushiga oid arxeologik va paleoantropologik tadqiqotlar orqali bizga yetib kelgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz bir-birini bilishga intilganlar, qo'ni-qo'shnilar to'g'risida ma'lumotlar to'plangan va og'zaki ijod orqali bizgacha yetib kelgan. Bunday ma'lumotlarni ibtidoiy rasmlardan ham bilish mumkin.

Muhokama va natijalar

Ilk elatlar to'g'risida ayrim xabarlar yozuvlarda saqlanib qolgan. Orol bo'yi, Amu va Sirdaryo, Movarounnahr va Baqtriyada yashagan qabila va elatlar to'g'risida ma'lumotlar qadimiy yozuvlarda ham mavjud.

Keyingi ma'lumotlarga qaraganda, jahonda uch mingdan besh mingacha etnoslar va etnik guruhlar mavjud. Ularning har biri uzoq tarixga ega. Ammo hududdagi o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va tojiklar bu yerda paleolit davrida umumiy etnik zaminda paydo bo'lib, ming yillar davomida ularning irqiy va etnik o'ziga xos xususiyatlari shakllanib, tillari ham o'zgarib kelgan.[1]

O'zbekiston arxeologlarining yangi kashfiyotlariga ko'ra, Markaziy Osiyoda odam bir million yil muqaddam paydo bo'lgan. Taxminan eramizdan avvalgi III ming yillikda uzoq davr davomida mintaqada murakkab etnogenetik jarayonlar yuz berib, katta ko'chishlar sodir bo'lgan, asrlar osha chegaralari o'zgarib turgan o'ziga



xos muayyan xo'jalik madaniy tiplar tarixiy etnografik viloyatlar va etnik birikmalar, xalq va elatlar yuzaga kelgan. Jumladan, ko'hna Oks (Amu) va Yaksart (Sirdaryo) bo'ylarida yirik skif hamda sarmat, sak-massaget qabilalari uyushmasi yuzaga kelgan.

Bepoyon Yevroosiyo va Markaziy Osiyo dashtlarida Itil bo'ylaridan Sharqda Enasoy, Janubda hamda Amu, Sirdaryo va Orol dengizi sohillarida skiflar nomi bilan tarixga kirgan juda ko'p sonli qabilalar va o'troq elatlar yashagan. Ular faqat tiligina emas, balki xo'jalik faoliyati, madaniyati, kelib chiqishi jihatidan ham umumiylikka ega bo'lganligi arxeologlar tomonidan aniqlandi.[2]

Mazkur etnik guruhlar qo'shni xalqlar tarixida ham muhim rol o'ynaganligini antik mualliflar qayd qiladilar. Daryo sohillarida yashovchi sak-massaget, sarmat va hokazo qabilalar dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, tosh, mis, bronza qurollari, bezak va buyumlar ishlab chiqarganlar, ko'chmanchi qavmlar esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar.[3]

Eramizdan avvalgi II ming yillikda mintaqada jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz beradi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar – qal'alarining paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi dastavval tekin qo'l mehnati hisobiga amalga oshirilardi. Qo'shni Eron, ayniqsa Midiya davlati tashkil topishidan oldinroq Markaziy Osiyoda ikkita quldorlik davlati – Baqtriya va Xorazm paydo bo'lganligi to'g'risida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Bu xududda yashagan qabila va elatlar ham umumiylikka ega bo'lganligi arxeologlar tomonidan aniqlandi.

Mazkur xududda yashagan qabila va elatlar faqat tiligina emas, balki xo'jalik faoliyati, madaniyati, kelib chiqishi jihatidan ham umumiylikka ega bo'lganligi arxeologlar tomonidan aniqlandi.

O'zbeklar O'rta Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, ko'hna va boy tarixga, yuksak madaniyatga ega xalq. Ular son jihatdan ham katta.

O'troq o'zbeklar tojiklar kabi O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan sanaladi. Ular Jayhun (Amudaryo) va Sayhun (Sirdaryo) oralag'idagi O'rta Osiyo hududida yashagan baqtriylar, so'g'dlar va xorazmiylarning avlodlaridir.

O'rta asr davridagi yozma manbalarda Movarounnahrning asosiy aholisini tavsiflash uchun odatda "turk" va "tojik" atmasidan foydalanadilar va bu bilan O'rta Osiyodagi ikkita asosiy etnik birikmani belgilaydilar. Ularning tarkibiga asrlar davomida turli etnik qatlamlar kirar edi.[4]

Ilk yozma manbalardagi ma'lumotlarga, shuningdek arxeologik va antropologik materiallarga asoslanib shuni aytish mumkinki, baqtriyaliklar,



so'g'dlar, xorazmiylar, farg'onaliklar va kanguyalar o'zbek elatining tarkib topishida dastlabki asosiy etnik qatlam bo'lishgan. Keyinchalik turli davlarda Movarounnharga ko'chib kelgan qabilalar yangi qatlam bo'lib qo'shilishgan.

X asr oxiri – XI asr boshlarida qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Movarounnahrga ko'chib kelgan bir talay qabilalar: turgashlar, to'xsilar, qorliqlar, chigillar, o'g'uzlar, arg'in va boshqa turkiyzabon qabilalar o'lkaning sharqiy eron va turk tillarida so'zlashuvchi aholisi tarkibini etnik jihatdan boyitdi, turkiy etnik qatlamning ustunligini bir qadar ta'minladi. Shunday qilib, Qoraxoniylar davrida o'zbek xalqi to'la shakllanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlandi. Eski o'zbek tiliga asos bo'lgan qorliq - chigil lahjasi rivoj topdi va yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi. Qorliq - chigil lahjasi, aytish mumkinki, shu o'zbek xalqining umumiy tili bo'lib qoldi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmat" asarlari mana shu davrning ijodiy mahsulidir.[5]

XIII asrning boshlarida, aniqrog'i 1219 yili Movarounnahrga Chingizxon katta qo'shin bilan bostirib kirdi. Bu qo'shin tarkibida mo'g'ullar bilan bir qatorda turklar va turklashgan mo'g'ullar ham ko'p edi. Qorliqlar, jaloirlar, totorlar, markitlar, qurlovutlar, burkutlar, qo'ng'irotlar, barloslar, sulduklar, boyovutlar, bahrinlar shular jumlasidandir. Bu qabilalar, shubhasiz, o'zbek xalqining etnik tarkibini yanada boyitdi. Lekin o'sha zamonlarda, XV asrga qadar bular o'zbek nomini olmagan edilar. Ular turk deb yoki o'z qabilalari nomi bilan atalganlar.

O'zbeklarning ajdodlari tarixda sezilarli iz qoldirdilar. Ular Somoniylar (819-1005), Chig'atoy ulusi (1227-1370), Temur va Temuriylar davlati (1370-1506)ning ijtimoiy - siyosiy hayotida katta o'rin egallab kelganlar. O'zbeklarning ajdodlari Saljuqiylar (1038-1194) va G'aznaviylar (977-1186) davlatining harbiy-siyosiy tayanchi bo'ldilar. O'zbeklar XVI asrning boshlarida Shayboniylar davlati (1500-1601)ga asos soldilar. Ashtarxoniylar (1601-1757) va Mang'itlar (1757-1920) davlatini ham asosan ular boshqardilar. Qo'qon (1709-1876) va Xiva (1512-1920) xonliklari ham o'zbeklarning davlati edi.

XI-XII asrlarda tarkib topgan o'zbek elatiga keyinchalik yangi qatlamlar kelib qo'shilgan. Bu davrda ko'plab turk - mo'g'ul qabilalari, shu jumladan asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga ko'chib kelgan qabilalar o'zbek elati tarkibiga kirgan eng muhim qatlamdirlar.

Hozirgi O'zbekiston yerlaridan turli davrlarda boshqa elatlar – yunonlar, arablar, mo'g'ullar ham yashashgan. Ular mahalliy aholi bilan qo'shib, asta - sekin singishib ketishgan. XVI asrda va shundan keyin qoraqalpoqlar, qozoqlar,



turkmanlar va qirg'izlar guruh - guruh bo'lib, ba'zan esa mahalliy aholi bilan qo'shilib yashashgan. Asrlar davomida turli halqlarning vakillari o'zaro xo'jalik va madaniy aloqalarda bo'lib kelishgan.

XVI asr boshlarida Movarounnahrda ko'chib kelgan turk - mo'g'ul qabilalari "o'zbek" nomini olib kelishdi. Keyinchalik bu nom etgik ahamiyat kasb eta boshladi. Ammo, bundan o'zbek elat sifatida XVI asrning boshlaridagina shakllandi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Xalqning tarixi uning nomidan qadimiyroq bo'lishini tasdiqlovchi misollarni boshqa ko'pgina mamlakatlardan ham keltirish mumkin. Ana shunday misollardan biri Movarounnahrdir.[6]

Hozirgi O'zbekiston yerlaridan keyinchalik o'zbeklar deb atalgan aholi juda qadim zamonlardan yashab kelgan.

XIII asrning 80-yillari - XIV asrning boshlarida "o'zbek" atamasi Dashti Qipchoqning turk - mo'g'ul ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholisining umumiy nomi sifatida arab va fors tilidagi asarlarda qo'llana boshlandi.

"O'zbek" etnonimining kelib chiqishi va mohiyati xususida turli fikrlar mavjud. Olimlarning bir guruhi bu atamaning kelib chiqishini Olti O'rdaning mashhur hokimi O'zbekxon (1313-1342) nomi bilan bog'laydilar. Boshqa bir guruh olimlar "o'zbek" atamasi Dashti Qipchoqning sharqiy qismida vujudga kelgan va bu yerda yashovchi barcha turk - mo'g'ul qabilalariga nisbatan qo'llanilgan deb hisoblaydilar. Uchinchi guruh tadqiqotchilar esa Dashti Qipchoqdagi turk - mo'g'ul aholisi uchun umumiy nom sifatida "o'zbek" atamasi XIII asrning oxirida, ya'ni O'zbekxondan ilgari vujudga kelgan, deb ta'kidlaydilar.

Ammo, deyarli barcha tadqiqotchilarning fikricha, XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda ko'chib kelgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi asta - sekin mahalliy turk aholisi bilan singishib ketib, turk aholisi tarkibiga so'nggi asosiy qatlam bo'lib qo'shildi va shu bilan birga ularga o'z nomini berdi.

Shimoldan kelgan ko'chmanchi qabilalar asta - sekin o'troq bo'la boshladilar. Ular Movarounnahrda kelgan dastlabki yillaridayoq Samarqand, Buxoro va O'rta Osiyodagi boshqa markazlarning aholisi singari ko'chmanchi zodagonlarning va shayboniylar yangi hukmron sulolasining vakillari sifatida tilga olinadilar. Ammo, ko'chib kelgan qabilalarning bir qismi ancha vaqtgacha ko'chmanchilik va yarimko'chmanchilik turmush tarzini tark etmadilar.

Ko'chmanchilarning qishloq deb ataladigan ilgarigi qishki manzilgohlari asta - sekin doimiy istiqomat joyiga aylana boshladi. U yoki bu qabila o'troq bo'lib qolgan joylar shu qabila nomini ola boshladi. Qo'ng'iroq, Mang'it, Qipchoq, Majar,



Doʻrmon va shu singari aholi yashaydigan joylarning nomi ana shu tarzda kelib chiqqan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, murakkab etnik jarayon umuman shunga olib keldiki, Dashti Qipchoq qabilalari asta - sekin “oʻzbek” degan umumiy nom bilan atala boshladilar va bu nom Oʻrta Osiyo ikki daryo oraligʻidagi qadimiy oʻtroq turk tilida gaplashadigan aholi tomonidan qabul qilinib, uning ilgarigi “turk” nomi oʻrniga ishlatila boshladi. XVI asrning oxirlarida Buxoro xonligining butun aholisi (Dashti Qipchoq oʻzbeklaridan tashqari) turklar va tojiklarga boʻlingan boʻlsa, keyinchalik, XVII asrning oxirlarida tarixchilar faqat oʻzbeklar va tojiklarni tilga oladilar. Bundan keyingi asrlarda ham etnik markazlashuv jarayoni davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Asqarov. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik shakllanishi T.: 2007
2. A.Asqarov Qadimgi Xorazm tarixiga oid baʼzi bir masalalar. “Oʻzbekiston etnologiyasi yangicha qarashlar va yondashuvlar” T.:2004 76-84 b.
3. B.A.Axmedov. Oʻzbekiston tarixi manbalari.-T.: «Oʻqituvchi». 2001. 5. Oʻzbekiston tarixi. R.X.Murtazaeva taxriri ostida.-T.: 2003.
4. Saʼdullaev A.S. Qadimgi Oʻzbekiston tarixi manbalardan.-T.: 1996.
5. A.YU. YAkubovskiy Oʻzbek xalqining yuzaga kelishi masalasi xaqida T.: 1941
6. Karim SHoniyazov. Oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni T.: 2001 74- 102 betlar